

# ILMIY DUNYOQARASHNI YUKSALTIRISH YORDAMIDA TALABALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Kamolova Shirinoy Usarovna**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

[shirin.kamolova.67@mail.ru](mailto:shirin.kamolova.67@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lish, axborotlarni ishlab chiqish va undan rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish masalasi o'rganilgan. bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning algoritmik tizimi ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'pgina muammolarni optimal yechimlarini topish uchun universal metodologiya bo'lib, o'zgina o'zgartirishlar qilish orqali undan boshqa shunga o'xshash muammolar optimal yechimini topishda ham foydalanish hamda Ilmiy dunyoqarashni yuksaltirish yordamida talabalarga aqliy tarbiya berishni takomillashtirish atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilmiy dunyoqarash, intellektual, shaxs kamoloti, xulq-atvor, aqliy, tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalar, tafakkur, madaniyat, tasavvur, ma'naviy-axloqiy fazilat.

«XXI asr – intellektual asr»ning, ya'ni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini tarbiyalash eng muhim dolzrab muammolardan biri bo'lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi intellekt va bilimlar ro'yobga chiqariladi hamda iste'molda ulardan foydalaniladi. Ushbu muammo yechimini hal etishda jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lish, axborotlarni ishlab chiqish va undan rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyat yuritishni muayyan rejalashtirilgan tartibga soluvchi yondashuv sifatida pedagogik texnologiya nazariyasidan foydalangan holdagi pedagogik faoliyat e'tirof etilmoqda. Jumladan, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashlarga texnologik yondashuv qilish va mazkur jarayonlarga axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanishni amalga oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada R.SH. Axliddinov [68], N. Avazov [66], A. Akmalov [67], D. Ashurova [69], S. Bozorova [29], M.V. Glushkov [13], A. Zunnunov [30], M.E. Zufarova [123], X.I. Ibragimov [76], J.G'. Yo'ldoshev [80], N.X. Kushvaktov [131], M.X. Lutfullayev [133], B.M. Mirzaaxmedov [138], P.I. Obrazsov [92], SH. Ochilov [93], N.Saydaxmedov [95], A. Saloxova [96], A.R. Soxibov [57], S.A. Smirnov [98], O'.Q. Tolipov [58], X.A. To'raqulov [147], N. Xojiboyev [157], M. Shamsiyev [106], SH.S. Sharipov [60], Q.Eshmatov [32], S.T. Yuldosheva [63] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalari ahamiyatlidir. Bu yaratilgan imkoniyatlar talabalarning dunyoqarashini kengaytirish va ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish asosida ta'lim jarayonida yangi texnika-texnologiyalarni qo'llashni o'zlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini ochib beradi. Bu esa axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy dunyoqarashi keng

barkamol avlodni shakllantirishning didaktik asoslaridan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish asosidagi kasbiy yetuk mutaxassislar tayyorlash muammolari T.Jo'rayev [74], R.Jo'rayev [72], V.Karimova [47], I.A.Klimov [82], S.V.Kulnevich [48], M.H.Mahmudov [50], Z.I.Mirzayunusova [137], SH. Olimov [93], B.X.Raximov [54] X.F.Rashidov [139], R.Safarova [97], N.O.Sulaymonov [140], SH.Turdiyev [141], X.Tillayev [100], K.G.Yuldoshev [159], D.N. Yuldasheva [62], E.O. Quvondiqov [109], va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Respublikamizda ham ushbu sohaga, ya'ni jamiyatni axborotlashtirish bo'yicha e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning barcha tarmoqlarini axborotlashtirish va uni takomillashtirish bo'yicha qator qarorlar, qonunlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar hamda boshqa meyoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va ular amaliyotga joriy qilinmoqda. Jumladan, «Axborotlashtirish», «elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish», «Aloqa», «Internet», «Masofaviy ta'lim», «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gilar bo'yicha telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishning meyoriy huquqiy asoslari yaratildi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimiz taraqqiyotida turli sohalarda tub burilishlar boshlanib ketdi. Ayniqsa, yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasi sohasiga alohida e'tibor berildi. Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda ham e'tibor yanada kuchaytirildi. Bundan maqsad: o'quvchining ongiga savodxonlik asoslarini va hisoblash tafakkuri elementlarini singdira oladigan, uzluksiz ta'lim tizmining keyingi bo'g'inlariga o'z o'quvchilarini intellektual salohiyatli bo'lish layoqatiga ega bo'lgan qilib tarbiyalashni uddalay oladigan, shuningdek, har bir o'quvchisida mavjud bo'lgan layoqat va qobiliyatlarni erkin rivojlantirish, ijobiy-xulqiy sifatlarni, milliy va fuqarolik his-tuyg'usini o'stirishni uddalay oladigan zamonaviy yetuk boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdan iborat bo'lib, bu tajribalarning ko'rsatishicha qayd etilgan maqsadni amalga oshirish quyidagidek vazifalarni hal qilishni taqozo etadi: Demak, endigi vazifa yuqoridagi ma'lumotlar mazmunini to'g'ri anglab, aqlni ishlatib, ular asosida ma'lumot bazalarini yaratib hamda ularni rejalashtirilgan maqsad-vazifalarga mos tizimlarga ajratib, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning optimal variantlarini yaratish, uslub, vosita va yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Albatta, bu katta hajmdagi ish bo'lib, uni hal qilish esa tadqiqotchidan yuksak intellektual salohiyatni talab qiladi. Chunki, jamiyat taraqqiyotida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish rivojlanish darajasini anchagina tezlashtirib yubormoqda. Bu borada D.Ashurova va Z.Yuldoshevlarning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: «Jamiyatshunos olimlarning e'tiroflariga ko'ra insoniyat o'z rivojlanishida texnokratik fazoga o'tmoqda». Bu fazoda rivojlanish tamoyillarining zaminida fan va texnikaning yutuqlarini kompyuter texnologiyalari asosida jamiyat hayotining barcha jabhalariga mumkin qadar tezkorlikda joriy etish yotadi. Iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi, moliyaviy va axborot oqimlari ta'sirida davlatlararo chegaralarning nisbiylashuvi hamda ilm-fan sohasidagi

soʻnggi yutuqlarning ishlab chiqarishga oʻta tezkorlik bilan joriy etilishi va yuqori samarali texnologiyalarning yaratilishi, shaxsga nisbatan kritik holatlarning sababchisi boʻlmoqda: kishilik jamiyatining informatsion yangilanishi ayrim shaxslarning biologik yangilashuvchidan, yaʼni avlodlar almashinuvidan tezroq sodir boʻlmoqda [69].

Bular orqali zamonaviy boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilar jamiyat talablarini, taʼlim oluvchi yoshlar maʼnaviy ehtiyojini qondira oladi [37].

Bugungi kunda taʼlimni kompyuterlashtirish davr talabi boʻlib, informatika fani yutuqlaridan foydalanmagan sohani topish qiyin va ular hayotimiz turli jabhalarida ishonchli universal didaktik vosita va asos sifatida ham oʻz oʻrnini topmoqda. Ushbu qayd etilgan boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning algoritmik tizimi taʼlim-tarbiya sohasidagi koʻpgina muammolarni optimal yechimlarini topish uchun universal metodologiya boʻlib, ozgina oʻzgartirishlar qilish orqali undan boshqa shunga oʻxshash muammolar optimal yechimini topishda ham foydalanish mumkin.

Ushbu sohada olib borgan koʻp yillik ilmiy izlanishimiz natijalarining koʻrsatishicha, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarning keng dunyoqarashli va kasbiy yetuk boʻlishi uchun ularda quyidagi qator qobiliyatlar mavjud boʻlish kerak ekan. Ular: - yuqoridagi funksional vazifalarni joriy etishning optimal variantini kafolatlashga boshqarish algoritmini yaratish;

- xalqimizning boy maʼnaviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlariga suyanan holda boshlangʻich taʼlimni rivojlantirishning jahon taʼlimi zamonaviy talablarini eʼtiborga olgan holda boshlangʻich taʼlimni tashkil eta oladigan mutaxassislar tayyorlashga erishish;

- foydalanilishi kerak boʻlgan metodologiya va unga mos taʼlim texnologiyasini tanlash hamda lozim topilganda ularni takomillashtirishga erishish;

- taʼlim mazmuni va oʻquvchi yoshiga mos taʼlim-tarbiyani amalga oshirishga qodir mutaxassislar tayyorlash.

- tayyorlangan maʼlumot bazalarini tadqiqot vazifalariga mos tizimlarga ajratish va ular asosida axborotli taʼminotni tayyorlash algoritmini yaratish;

- tadqiqot obyektini tanlash;

- tadqiqot maqsadi va obyektiga mos maʼlumotlarni yigʻish mezonlarini yaratish va ular asosida maʼlumot bazalarini tayyorlash;

- tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos foydalaniladigan mezon, tamoyil va algoritmlarni aniqlash;

- tadqiqot jarayoni texnologiyasini ilmiy jihatdan asoslash va unga mos maʼlumot bazalari hamda axborotlar bankini tayyorlash mexanizmini yaratish;

- muammoning qoʻyilishini aniqlash va unga mos yechiladigan masalalar koʻlamini belgilash hamda uni doimo xohlagan paytda murojaat qilishga qulay holga keltirib qoʻyish;

Jamiyatimiz taraqqiyotiga mos taʼlim-tarbiya sohasida koʻplab ijobiy oʻzgarishlar boʻlmoqda, moddiy va maʼnaviy qadriyatlarimizning yangi-yangi qirralarini oʻrganish imkoniyatlari tugʻilmoqda. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni sinchiklab, mukammal oʻrganish, zamonaviy ilm-fan, texnika-texnologiyalar borasidagi yutuqlarni oʻrganish va tahlil qilish boʻlajak

mutaxassislar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda mustahkam ilmiy asos bo'lmogda. Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning algoritmik tizimini amaliyotga joriy qilishda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish ishlarini bajaruvchi algoritmik bloklar quyidagi funksional vazifalarni bajaradi:

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'zidan ham katta intellektual salohiyat (bu aqliy tarbiya asosida shakllanadi)ni, kasbiy bilimdonlikni (bu oliy o'quv yurtida egallagan bilim, ko'nikma va malaka asosida shakllanadi)ni va ma'naviy yetuklik (bu talaba-yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish orqali shakllanadi)ni talab qilinar ekan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning algoritmik tizimini amaliyotga joriy qilishda dastlabki ma'lumotlarni (aql, ong, fikr, ongli odam, fikrli odam, yangi fikr, ijodiy fikr, dunyoqarash, ilmiy dunyoqarashi, aqliy tarbiyani tashkil etuvchi jihatlar va omillar) yig'ish, o'rganilayotgan muammoga mos tizimlarga ajratish, ularni axborotlarga aylantirish va ular asosida axborotlar bankini tashkil qilish ishlarini olib borishlikni talab etadi va bu talab yaratilgan ta'lim texnologiyasining hayotiyligini ta'minlaydi hamda ijobiy pedagogik samaralarni qo'lga kiritishga keng imkoniyatlar yaratadi, ayniqsa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning izchil tizimini yaratishni kafolatlaydi;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kamolova SH. O'quv bilish faoliyatining tasnifi haqida // "Fan, ta'lim va amaliyot" majmuasining dolzarb muammolari: ilmiy maqolalar to'plami. – Jizzax: JDPI, 2006. – № 1. – B. 83 – 88.
2. Akmalov A. Dunyoviylik daxriylik emas // Ma'rifat. – Toshkent: 2004 (27.03.04). – B. 7.
3. Kamolova, SH. O'., & Munarova, R. O'. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. *Issledovatel nauchniy jurnal.–Qozog'iston*, 5(49), 100-105.
4. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 2(6).
5. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(1).
6. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In *Aktualniye zadachi pedagogiki* (pp. 184-186).